

TABIATNI ASRASHDA HAR BIR INSONNING O‘RNI

Xalilova Durdona Erkin qizi*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi**Email durdonaxalilova879@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiat inson hayotining ajralmas qismi ekanligi, tabiatni asrash uchun har bir inson mas’ulligi hamda atrof muhitni muhofaza qilishda aholining faol ishtiroki yoritilgan. Maqolada tabiatga e’tiborli bo’lish, yashil muhitni saqlash, suv va havoning tozaligini asrab qolish nafaqat davlat yoki tashkilotning vazifasi, balki har bir fuqaroning burchi ekanligini ta’kidlanadi. Inson va tabiat o’rtasidagi uyg’unlikni saqlash orqali kelajak avlodlarga musaffo osmon va go’zal yurtning meros qilib qoldirish g’oyasi ilgari suriladi. Unda insonning kundalik hayotida oddiy, ammo muhim ekologik odatlari: chiqindilarni to’g’ri tashlash, daraxt ekish, suvni tejash kabi amallar orqali tabiatga bo’lgan hurmatini namoyon etishi haqida so’z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что природа является неотъемлемой частью человеческой жизни, подчёркивается ответственность каждого человека за её сохранение, а также активное участие населения в охране окружающей среды. Отмечается, что забота о природе, сохранение зелёных насаждений, чистоты воды и воздуха — это не только обязанность государства или организаций, но и долг каждого гражданина. Идея статьи заключается в том, что, сохраняя гармонию между человеком и природой, мы можем передать будущим поколениям чистое небо и прекрасную страну. Кроме того, подчёркивается, что уважение к природе проявляется в повседневных экологических привычках человека: правильном обращении с отходами, посадке деревьев, экономии воды и других простых, но важных действиях.

Annotation. This article discusses the fact that nature is an integral part of human life, emphasizing each individual’s responsibility for its preservation and the active participation of society in protecting the environment. It highlights that caring for nature, preserving greenery, and maintaining clean air and water are not only the duties of the state or organizations, but also the obligation of every citizen. The main idea of the article is that by maintaining harmony between humans and nature, we can pass on a clear sky and a beautiful land to future generations. The article also points out that a person’s respect for nature is reflected in simple yet important everyday ecological habits, such as proper waste disposal, tree planting, and water conservation, water ecological culture, environment, future generations.

Kalit so’zlar: Tabiat, inson, tabiatni asrash, chiqindilarni to’g’ri tashlash, daraxt ekish, suvni tejash, ekologik madaniyat, atrof-muhit, kelajak avlod.

Ключевые слова.природа, человек, охрана природы, правильное обращение с отходами, посадка деревьев, экономия воды, экологическая культура, окружающая среда, будущее поколение

Keywords.Nature, human, nature protection, proper waste disposal, tree planting, water conservation, ecological culture, environment, future generations.

Kirish.

Tabiat —inson hayotining ajralmas qismidir.U bizga toza havo, musaffo suv, yashil makon va go‘zal manzaralar orqali bizga hayot bag‘ishlaydi.Har bir daraxt,har bir yaproq,har bir tomchi suv bizning hayotimizning bir bo‘lagi.Ammo, bugungi kunga kelib inson faoliyati tufayli tabiat yanada ifloslanib , uning tabiiy muvozanati buzilmoqda.Insonning beparvoligi, tabiiy boyliklardan noo‘rin foydalanish oqibatida tabiat tobora zarar ko‘rmoqda.Shu boisdan bugungi kunda tabiatni asrash, ekologik madaniyatni shakllantirish va har bir insonda mas‘uliyat hissini uyg‘otish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Tabiatni asrash har bir fuqaroning kundalik hayotidagi ezgu amallar orqali bajarilishi lozim bo‘lgan insoniy burchidir.Chunki tabiatni faqat qonunlar yoki tashkilotlar emas, balki odamlarning xatti-harakati asrab qoladi.Tabiatni muhofaza qilish orqali biz nafaqat o‘z bugunimizni , balki ertangi kunimizni ham go‘zal bo‘lishiga hissa qo‘shamiz.Zero,tabiatni asrash, kelajakni asrash bilan barobardir.

Tabiat inson hayotining ajralmas qismi, uning yashashi, nafas olishi va farovonligining asosi hisoblanadi. Inson tabiatdan ozuqa, suv, havo va ruhiy osoyishtalik oladi. Shunga qaramay,hozirgi zamonda inson faoliyati natijasida o‘rmonlarning kesilishi, chiqindilarning ko‘payishi, suv va havoning ifloslanishi kun sayin oshib bormoqda.Bularning barchasi insoniyat kelajagiga xavf solmasmikan?Shu sababli tabiatni asrash masalasi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Har bir inson, kim bo‘lishidan qat’i nazar, tabiat oldidagi burchini his etishi lozim. Chunki tabiatni muhofaza qilish — bu faqatgina hukumat yoki ekologik tashkilotlarning vazifasi emas, balki har bir insonning vijdon oldidagi mas‘uliyatidir. Biz bugun tabiatga qanday munosabatda bo‘lsak, ertangi avlod bizga shunday minnatdor yoki norozi bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir insonning tabiatni asrashdagi o‘rni nihoyatda muhimdir.

Asosiy qism.

Inson tabiatdan ajralgan holda yashay olmaydi.Tabiat—hayotning nafari, yashashning mohiyatidir.Agar biz uni asrasak,u bizni boqadi ammo beparvo bo‘lsak,u bizdan yuz o‘giradi.Shunday ekan har bir inson o‘zining kichik amali bilan ham tabiatni himoya qilishga hissa qo‘shishi zarur: daraxt ekish, suvni tejash, chiqindilarni to‘g‘ri tashlash,yerga mehr bilan qarash- bularning barchasi ezgulikka eltuvchi

qadamlardir. Tabiatni asrash -bu butun insoniyat zimmasidagi eng muhim burchdir . Chunki tabiat va inson hayoti bir - biriga chambarchas bog‘liq. Daraxtlar havoni tozalaydi, suv hayot manbai, hayvon va o‘simliklar tabiat muvozanatini ta‘minlaydi. Ammo , hozirgi kunda inson faoliyati -sanoat chiqindilari, plastik idishlardan foydalanish, suvni isrof qilish natijasida tabiatga katta zarar yetmoqda. Har bir inson chiqindini to‘g‘ri tashlasa, daraxt ekishga odatlansa, suv va elektrni tejasa, atrof -muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasa natijasi a‘lo bo‘ladi. Zero, har bir kichik amal umumiy ezgu maqsad sari xizmat qiladi. Shuning uchun ham «Tabiatni asrash - hayotni asrash »degan fikr bejizga aytilmagan. Tabiatni muhofaza qilishda insonning ekologik madaniyati ham bo‘lishi lozim. Ekologik madaniyat insonni tabiatni sevishtirishga unga zarar yetkazmaslikka undaydi. Bu madaniyat bolalikdan shakllanadi.

Maktabda, oilada va jamoat joylarida bolalarga tabiatni sevishtirish, daraxt ekish, suvni tejash kabi odatlarni o‘rgatish kerak . Chunki kelajak avlod ongida tabiatga mehr uyg‘otilmasa, ular sog‘lom muhitda yashay olmaydi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ekologik muhofaza sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. «Yashil makon» umumxalq loyihasi, «Bir tup daraxt -bir umid »shiori ostidagi tadbirlar buning yorqin misolidir. Bu kabi tashabbuslar xalqni atrof -muhitga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartiradi. Har bir fuqaro bunday ezgu ishga o‘z hissasini qo‘shsa, yurtimiz yanada go‘zal va musaffo bo‘ladi. Insonning yuragida ham tabiatga mehr bo‘lishi kerak.

Tabiat — bu bizning ona bag‘rimiz, hayotimizning manbai, tinchligimizning garovidir. Daraxtlar bizga nafaqat soya, balki nafas ham beradi; suv hayot tomirimizda oqayotgan qon kabidir; havo esa hayotning eng zarur ne‘mati. Ammo inson o‘z nafsiga berilib, tabiatga nisbatan beparvo bo‘lib qolmoqda. Bir daraxtni kesganimizda — bir umr nafas beruvchi hayotni yo‘qotamiz. Bir daryo ifloslansa — butun tiriklik zaharlanadi. Har bir plastik qop, har bir tashlab yuborilgan chiqindi — tabiat yuragiga sanchilgan tikandir.

Biz tabiatni asrash haqida gapiramiz, lekin amal qilishni unutamiz. Aslida, tabiatni asrash — bu shunchaki daraxt ekish yoki chiqindini tozalash emas, balki yuragimizda minnatdorchilik tuyg‘usini uyg‘otishdir. Chunki tabiat bizdan hech narsa so‘ramaydi, ammo hamma narsani beradi.

Bugun bir qushning sayrashidan, buloqning shovullashidan, yaproqlarning shitirlashidan zavq olaylik. Chunki ertaga ularning ovozi eshitilmasligimiz mumkin. Keling, tabiatni asrashni boshqalardan emas, o‘zimizdan boshlaylik. Har bir qadamimiz, har bir qarorimiz yer, suv, havo va hayvonlar uchun foydali bo‘lsin. Shundagina kelajak avlod bizdan minnatdor bo‘ladi.

Tabiat inson uchun bitmas-tuganmas mo‘jiza manbai. U har kuni bizni o‘zining rang-barang go‘zalligi, bilan hayratda qoldiradi. Tog‘larning ulug‘vorligi, daryolarning jo‘shqin oqimi, va qushlarning sayrashi — bularning barchasi tabiatning

sehrli musiqasidir. Bahorda gullar ochilib, atrofga yoqimli hid taraladi, yozda dalalar yashillikka burkanadi, kuzda oltin yaproqlar yerni bezaydi, qishda esa oppoq qor tabiatni orzudek go'zal libosga burkab qo'yadi. Har bir fasl — bu Yaratganning go'zallikka to'la mo'jizasidir. Tabiat mo'jizalarini ko'rish uchun uzoqqa borish shart emas. Bir dona maysaning o'sishi, bitta yomg'ir tomchisining yerni jonlantirishi yoki bitta qushning qanot qoqishi ham hayotning mo'jizasidir. Inson shularni his etgan chog'ida, yuragida tinchlik va minnatdorlik uyg'onadi.

Ammo bu mo'jizalarni asrash har birimizning burchimizdir. Tabiat kelajak avlodlarga qoldiradigan eng bebaho merosimizdir. Uni seveylik, himoya qilaylik va har bir kunni tabiat bilan o'tkazaylik. Chunki tabiat — bu hayotning o'zi, hayot esa eng buyuk mo'jiza.

Daraxtlar- yerning yuragi, suv- hayotning tomiri, havo esa nafasimiz ekanligini unutmasligimiz lozim. Keling, sizlar bilan tabiat haqida bir qancha qiziqarli ma'lumotlarni ko'rib chiqsak:

1. BMT ma'lumotlariga ko'ra, har yili taxminan 10 million gektar o'rmonlar yo'qoladi, bu esa daraxtlarning ayovsiz kesilishini anglatadi.

2. Bir dona daraxt yiliga 120 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutadi va 2 nafar insonning nafas olishiga kislorod ajratadi.

3. Bir dona qog'oz varag'ini ishlab chiqarish uchun o'rtacha 10 litr suv sarflanadi. Shu sababli, qog'ozni tejash tabiatni asrashga xizmat qiladi.

4. Inson faoliyati natijasida so'nggi 100 yilda Yer harorati o'rtacha 1,2 °C ga oshgan. Bu esa iqlim o'zgarishining asosiy sababi hisoblanadi.

5. Okeanlarga har yili 8 mln tonna plastik chiqindi tashlanadi. Bu shunday davom etsa, 2050- yilga borib, okeanlardagi plastmassalar baliqlardan ko'p bo'lishi mumkin.

6. Bir gektar o'rmon yiliga 700 tonnadan ortiq chang va zaharli moddani o'ziga singdirib havoni tozalaydi.

7. Yashil o'simliklar inson kayfiyatini 20 %ga yaxshilaydi, stressni kamaytiradi.

8. Qayta ishlangan bir tonna qog'oz 17 tup daraxt, 26 ming litr suv va 4000 kVt elektr energiyasini tejaydi.

9. Bir dona gazeta ishlab chiqarish uchun 75 litr suv sarflanadi. O'zbekiston hududining 60 % dan ortig'i qurg'oqchil mintaqaga kiradi. Shuning uchun ham suvni tejashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. Bir kishi har kuni chiqindilarni to'g'ri ajratsa, yiliga 150 kilogrammgacha qayta ishlanadigan materialni tabiatga qaytarish mumkin. Bundan kelib chiqib shuni aytish joizki, tabiatni asrash bu nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodning ham vazifasi ekan. Har bir inson «Men tabiat uchun nima qildim?» degan savolni o'ziga berib hayotida ekologik madaniyatni shakillantirib olishi zarur. Negaki, tabiatni asrash insoniyatni asrash demakdir.

Tabiat— u bizga bepul berilgan ne'mat, ammo abadiy emas. Daraxtlarning shovullashi, daryolarning to'liqini, qushlarning sayrashi — bularning barchasi hayot ohangidir. Ammo inson o'z qudratiga mahliyo bo'lib, tabiatning yuragini ezayotganini sezmay qoldi. Har kesilgan daraxt — bir nafasning yo'qolishi, har ifloslangan suv — bir umrning qisqarishidir. Odamzod shuni unutmasin: u tabiatning egasi emas, farzandidir. Ona tabiat bizni mehr bilan boqdi, endi esa u og'riqda, yordam so'rab faryod chekmoqda. Cho'llar kengaymoqda, suvlar qurimoqda, havoda tutun, yuraklarda beparvolik.

Endi uyg'onish vaqti keldi! Har bir tomchi suvni qadrlaylik, har bir daraxtni asraylik, yerga ozor bermaylik. Chunki tabiat — bu hayot, hayotni asrash esa insonlik burchidir. Tabiatni asra, odamzod — u sensiz yashay oladi, ammo sen usiz bir nafas ham ololmaysan!!!

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tabiat - bu inson hayotining asosi uning yashash makonidir. Har birimiz tabiatga mehr bilan qarasak, uni asrashni o'z burchimiz deb bilsak, atrof -muhitning muvozanatini saqlay olamiz. Daraxt ekish, suvni tejash, chiqindilarni to'g'ri tashlash, tozalikni saqlash -bular oddiy ko'ringan amallar bo'lsa-da, katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi. «Bir daraxt ekkan kishi -ming duo eshitadi» deganlaridek, har bir ezgu amal tabiatni yashnatadi. Agar biz tabiatni e'zozlasak, u ham bizni o'z ne'matlari bilan siylaydi. Tabiatni asrash orqali biz nafaqat o'z hayotimizni, balki farzandlarimiz kelajagini ham asraymiz. Zero, sog'lom muhit-sog'lom jamiyat garovidir.

Tabiat bizga so'zsiz, ammo eng samimiy mehr bilan hayot hadya etadi. U bizdan esa faqat bir narsani so'raydi — asrashni. Daraxtning shovullashi, daryolarning shildirashi, qushlarning sayrashi — bular hayotning musiqasi, inson ruhining tinchligidir. Agar biz bu ohangni yo'qotsak, kelajak jimjitlik og'ushida qoladi. Shuning uchun har birimiz bugundan o'zimizdan boshlaylik: daraxt ekaylik, suvni tejaylik, yerga mehr beraylik. Chunki tabiatni asrash — bu hayotni asrash, bu insoniyatning eng ulug' burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-noyabrdagi PQ-5270-son qarori — “Yashil makon” umummilliy loyihasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni, 2022-yil 15-iyul.
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Air Pollution and Health Report, 2023-yil.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). Global Forest Resources Assessment, 2022-yil.

5. O‘zbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy ma’lumotlari, 2024-yil.
 6. Karimova, N. (2021). Ekologik madaniyat va tabiatni asrash asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
 7. Rasulov, Sh. (2020). Inson va tabiat uyg‘unligi. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
- Internet manbalari:
8. www.eco.gov.uz
 9. www.green.uz